



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz

№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
<i>Sherdanova Farangiz Raxmat qizi</i>	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
<i>Maxanbetova Dilnoza</i>	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
<i>Nazarova Yulduz Atamuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
<i>Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz</i>	
Milliy taraqqiyot g'oyalari jadid ayollarining o'rni.....	220
<i>Ergashova Mehriniso Husniddin qizi</i>	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
<i>Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
<i>Reymova Erkinay Atabayevna</i>	
Raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida professor-o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari.....	232
<i>Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li</i>	
Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation	238
<i>Aziza Sobirova</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	243
<i>Otayeva Salamat Sabirovna</i>	
System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms	250
<i>Odilova Fotima</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	259
<i>Berdiyeva Nilufar Axatovna</i>	
Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari.....	267
<i>Eshonqulova Madina Nosir qizi</i>	
Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ.....	272
<i>Камолова Махлиё Акбар кизи</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun'iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi.....	277
<i>Savriddinova Mexrinov Ulug'bekovna, Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li</i>	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning tug'ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog'liqligi.....	282
<i>Kalandarova Madina Baxadirovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	285
<i>Kamolova Mashhura Otabek qizi</i>	
Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI.....	289
<i>Odilova Fotima</i>	
Adabiy ta'limda badiiy matnlar orqali o'qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	294
<i>Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari.....	298
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi	302
<i>Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari	307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari	313
Pulatova Dilfuza Baxramovna	
"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari.....	318
Saidova Sumbuloy Otabayevna	
Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	321
Xamidova Zaynura Ramazonovna	
Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari	324
Yunusova Dildora Hamrakulovna	
Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.....	328
Kasimova Xulkar Atabayevna	
Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi	



KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Otayeva Salamat Sabirovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Pedagogika va aniq fanlar” kafedrası v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish masalalari huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlarga asoslangan nazariy manbalar tahlili asosida yoritilgan. Tadqiqotda ijod, tasavvur, ijodiy tasavvur, bilish jarayonlari atroflicha tahlil qilinib, ijodiy tasavvurning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar va uni rivojlantirishda samarali metod hamda vositalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga oid ilmiy xulosalar umumlashtirilib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: “Ilk qadam” milliy o'quv dasturi, davlat talablari, eng yaqin rivojlanish zonasi, bilish jarayonlari, tafakkur, intellekt, kreativlik, katta maktabgacha yosh davri, ijodiy tasavvur, fikr ravonligi, moslashuvchanlik, xilma-xillik, originallik, rivojlantiruvchi muhit, idrok etish.

Abstract: This article highlights the issues of developing creative imagination in senior preschool children based on the analysis of regulatory and legal documents, as well as theoretical sources grounded in modern pedagogical and psychological approaches. The study provides a comprehensive analysis of creativity, imagination, creative imagination, and cognitive processes, revealing the factors influencing the development of creative imagination and the specific features of using effective methods and tools for its enhancement. In addition, scientific conclusions related to supporting the creative activity of senior preschool children are summarized, and relevant recommendations are developed.

Key words: Ilk Qadam National Curriculum, State Requirements, Zone of Proximal Development, cognitive processes, thinking, intelligence, creativity, senior preschool age, creative imagination, fluency of ideas, flexibility, diversity, originality, developmental environment, perception.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы развития творческого воображения детей старшего дошкольного возраста на основе анализа нормативно-правовых документов, а также теоретических источников, основанных на современных педагогико-психологических подходах. В исследовании подробно анализируются понятия творчества, воображения, творческого воображения и познавательных процессов, раскрываются факторы, влияющие на развитие творческого воображения, а также особенности использования эффективных методов и средств его развития. Кроме того, обобщены научные выводы по вопросам поддержки творческой деятельности детей старшего дошкольного возраста и разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: Национальная учебная программа “Ilk qadam”, государственные требования, зона ближайшего развития, познавательные процессы, мышление, интеллект, креативность, старший дошкольный возраст, творческое воображение, беглость мышления, гибкость мышления, разнообразие, оригинальность, развивающая среда, восприятие.

KIRISH

Butun dunyoda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, maktabgacha yosh davri bolaning ruhiy rivojlanishi hamda har tomonlama shaxs sifatida shakllanishi uchun eng muhim bosqich sanaladi. Bolalarning fikrlashi, diqqatni jamlashi, xotirasi, nutqi va tasavvuri kabi bilish jarayonlari shu davrda shiddat bilan rivojlanadi. Bunday psixologik o'sish shaxsiy shakllanish bilan uyg'unlashib, bolada turli xil qobiliyatlarni, ayniqsa, ijodiy salohiyatni qaror toptirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotlar natijalariga asosan, psixologiya sohasida shaxs ijodiy tasavvuri orqali yangi dunyoni yaratishi va kashf qilishi turlicha yondashuvlar orqali turlicha izohlanadi. Jumladan, insondagi ijodiy tasavvur hissiy va mantiqiy jarayonlarning birlashuvi orqali yuzaga keladi. Bu jarayonlarning uyg'unlashuvi insonning o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi. Yana boshqa jihatdan, tasavvur ijodiy bilish jarayonida insondagi mavjud bilimlardan foydalanib yangi bilimlarni yaratish yoki bilimlarni bir sohadan boshqa sohaga ko'chirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada insonning bilish jarayonlari tobora murakkab vazifalarni tushunishga va hal qilishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim siyosati ilg'or xalqaro tajribalar asosida takomillashtirib borilmoqda. Xususan, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda ushbu talablarni amaliyotga joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" milliy o'quv dasturining uchinchi nashrida: "Ijodiy rivojlanish bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarni ifoda etish qobiliyatini, turli san'at turlari va ijodiy o'yinlar orqali kreativ fikrlashni, yangi g'oyalarni yaratish hamda ularni individual yoki jamoaviy ijodiy faoliyatda amalga oshirishni nazarda tutadi", - deb keltirilgan ^[1].

Shu bilan birga, davlat talablari asosida amalga oshiriladigan milliy o'quv dasturida ta'limiy faoliyatlarni tashkil etishda 5–6 yoshli bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur yosh davrida bolaning kundalik hayoti va faoliyati integratsion yondashuv asosida tashkil etilib, unda ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish hamda tasavvurini boyitishga xizmat qiladigan turli faoliyat turlarining o'zaro uyg'unligi ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilgan. Ushbu muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda tasavvur bolaning atrof-muhitni anglash, yangi obrazlar yaratish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi muhim psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Maktabgacha ta'lim sohasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi ^[1] muhim nazariy manba sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek, I. Piage, L.S. Vigotskiy ^[3], T.S. Komarova ^[6], J. Buza Koster ^[8], V.T. Kudryavtsev ^[11], D.B. Bogoyavlenskaya ^[4], R.S. Nemov ^[7] kabi olimlarning qarashlari tahlil qilindi. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar qiyosiy o'rganilib, ularning mazkur muammoni yoritishdagi ahamiyati baholandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tanlangan metodologiya zamonaviy ilmiy qarashlar va yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqot muammosini aniqlashda katta maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida ijodiy tasavvurning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishning barcha bosqichlarida individual fikrlash, moslashuvchanlik, originallik, variativlik, mustaqil qaror qabul qilish, reflektiv faoliyat kabi tasavvurni rivojlantirish belgilariga ahamiyat qaratildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kontent tahlili, sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini shakllantirishga xizmat qiluvchi o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning nazariy asoslari yoritildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tizimida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ijodiy salohiyatini namoyon etishiga sharoit yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan milliy dasturiy yondashuvlarda ham bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash, mustaqil fikrlashi va faoliyat jarayonida o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuvlarda bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, uning qiziqishlari asosida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish hamda ijodiy faoliyatini rag'batlantirish muhim pedagogik tamoyil sifatida belgilangan.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda bolaning faol subyekt sifatida namoyon bo'lishi, uning mustaqil fikrlashi, atrof-muhitni anglashga bo'lgan qiziqishi va ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, katta maktabgacha yosh davrida bolalarning bilish jarayonlari, tasavvuri, nutqi va ijodiy fikrlashi jadal rivojlanib, ular o'z tajribalarini qayta ishlash, yangi obrazlar yaratish hamda turli faoliyatlarda o'z g'oyalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.



“Ilk qadam” milliy o'quv dasturi asosida ish ko'rish amaliyotida keltirilgan bir necha uslubiy qo'llanmalardagi ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, bolalar rivojlanishida psixolog olim I. Piaje maktabgacha rivojlanishni quyidagi bosqichlarga ajratgan:

1. **Sensor-motor intellekt davri** - bu bosqichda bolalar reflekslari, sezgilari va harakatlari orqali bilim oladilar, atrofdagi buyumlarni o'rganadilar va ular bilan turli harakatlar (manipulyatsiyalar) bajaradilar (2 yosh-gacha).
2. **Operatsiyagacha tafakkur davri** - bu bosqichda bolalar o'z idroklariga asoslangan tasavvurlar va g'oyalarni shakllantiradilar. Ular ma'lum vaqt davomida faqat bitta aniq narsaga e'tibor qaratishlari, cheklangan tajribalari asosida umimlashtirishlari mumkin. Bu davrda bolalarda egosentrik tafakkur, ya'ni faqat o'z fikrini to'g'ri deb qabul qilish xususiyati kuzatiladi (2–7 yosh). J. Piaje o'z qarashlarida bolalarning kognitiv rivojlanishiga asosiy e'tiborni qaratib, mazkur rivojlanishda atrof-muhit, kattalar va tengdoshlar muloqoti hamda ta'limning ta'sirini yetarli darajada yoritmaydi.

L.S. Vigotskiyning qarashlari ushbu nazariyani yanada chuqurroq rivojlantirdi. L.S. Vigotskiy nazariyasi-ning asosiy g'oyalardan biri - eng yaqin rivojlanish zonasi tushunchasidir. Eng yaqin rivojlanish zonasi bolaning mavjud (dolzarb) rivojlanish darajasi va potensial rivojlanish darajasi o'rtasida shakllanadi:

1. Bola vazifani mustaqil ravishda bajara oladi.
2. Bola vazifani kattalar yoki tajribali tengdoshi yordamida bajara oladi.

Ta'lim jarayonida L.S. Vigotskiy bolaga yordam ko'rsatishni tashkil etishda kattalarning roliga katta ahamiyat bergan:

Birinchidan, kattalar bolaning qiziqishini uyg'otishi va uni vazifalarni bajarishga undashi kerak. Bola faoliyatga qiziqishi va uni bajarishga intilishi muhimdir.

Ikkinchidan, agar bola biror vazifani bajarishda qiyinchilikka duch kelsa, unga yechimga olib boruvchi bosqichlarni soddalashtirish va kamaytirish zarur. Pedagog nafaqat vazifani tushunarliroq qiladi, balki uni bajarishda bolaga yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi. Keyinchalik bola bu faoliyatni mustaqil bajara boshlagach, unga yangi va murakkabroq vazifalar beriladi.

Uchinchidan, pedagog bolaning qiziqishi va ishtiyoqini saqlab turishi muhimdir. Bola rag'batga ehtiyoj sezadi, muammoni hal qilish jarayoni uning uchun qiziqarli bo'lishi kerak. Shuningdek, bola berilgan vazifani uddalay olishiga ishonch hosil qilishi lozim [3, 15-b.]. Olim nazariyasining muhim jihati shundaki, u bolaning psixik rivojlanishini faqat biologik yetilish bilan emas, balki ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muloqot, madaniy muhit hamda kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat orqali izohlaydi.

Ijodiy tasavvur tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritishda biz, avvalo, ijodkorlik tushunchasining mazmuniga to'xtalishni joiz bildik hamda olimlarning qarashlari tahlilini keltirdik. D.B. Bogoyavlenskaya o'zining iqtidorlilik konsepsiyasida ijodkorlikni nafaqat har qanday faoliyatni yuqori darajada bajarish qobiliyati, balki uni o'zgartirish va rivojlantirish qobiliyati sifatida belgilaydi [4].

Shuningdek, ijodkorlik deganda nimalar nazarda tutilishiga alohida ahamiyat qaratdik. Ijodkorlik deganda quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- alohida usulda amalga oshirilgan idroklarning birikmasi;
- yangi aloqalarni topish qobiliyati;
- yangi munosabatlarning yuzaga kelishi;
- yangi asarlarning paydo bo'lishi;
- yangilikni amalga oshirish va yaratishga moyillik;
- yangi kashfiyotlarga olib keluvchi tafakkur faoliyati;
- tajribani yangi tizimga aylantirish;
- yangi ma'nolar uyg'unligini tasavvur qilish va hokazo.

Shu o'rinda an'anaviy ravishda ijodiy jarayonlarni baholashga, ularning mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga qaratilgan barcha yondashuvlarni ikki katta guruhga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kreativlik ijodiy mahsulot sifatida qaraladi va bunda mahsulotning o'ziga xos sifati baholanadi.
2. Kreativlik jarayon sifatida qaraladi. Bunday holatda jarayonning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi [5].



Yuqorida bayon etilgan fikrlarga tayangan holda, biz Tamara Komarova tomonidan ajratib ko'rsatilgan bolalar ijodkorligining quyidagi ko'rsatkichlarini asosli deb hisoblaymiz:

1. **Ijodiy tasavvurning rivojlanganligi** - avvalgi tajribani qayta ishlash va yangicha o'zgartirish qobiliyati, shuningdek, shartli yoki xayoliy vaziyatlarga kirisha olish qobiliyati.
2. **Faoliyatga qiziqish va berilganlik** - ijodiy maqsadga erishishda bolani faol harakat qilishga, irodaviy sa'y-harakatlarni safarbar etishga undaydi.
3. **Samimiylilik va bevositalik** - bola hatto xayoliy vaziyatlarda ham his-tuyg'ularni tabiiy va chin dildan boshdan kechiradi.
4. **Badiiy ifoda vositalarini egallaganlik** - ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradigan tasviriy, musiqiy, nutqiy va boshqa badiiy vositalardan foydalana olish.
5. **Faoliyat motivlarining o'zgarishi** - bola faoliyat natijasidan zavq oladi va bu ijodiy faoliyatga bo'lgan ichki qiziqishni kuchaytiradi. Mazkur ko'rsatkich ijodiy tasavvurning ijodiy maqsadga yo'naltirilganligini tavsiflaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijod qilish ehtiyojining shakllanishi - bolalarda mustaqil ravishda yangi g'oyalar yaratish, yangilikka intilish va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ichki ehtiyojning rivojlanishi [6].

O'z o'rnida tasavvur tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, R.S. Nemovning fikricha, tasavvur inson psixikasining boshqa psixik jarayonlardan alohida ajralib turuvchi o'ziga xos shakli hisoblanadi. Tasavvur yordamida inson ijod qiladi, o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradi va uni boshqaradi [7, 260-b.].

J. Buza Koster o'z tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga kelgan: bolalarda ijodiy tasavvurning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratish, ya'ni bolaning turli tasviriy faoliyat turlari bilan erkin shug'ullanishiga, turli materiallardan foydalanishiga va bu jarayonda pedagog kuzatuv ostida mustaqil ishlashiga sharoit yaratish zarur [8]. Bir tomondan, bolalarga vaqt, materiallar va ish mazmuni bilan cheklanmagan bunday yondashuv ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan esa, materiallar bilan tajriba qilishga qo'shimcha ravishda maqsadli pedagogik yo'naltirish ijodiy faoliyatni chuqurlashtiradi va rivojlantiradi.

S. Otayevaning bitiruv malakaviy ishida: "Tasavvur inson ongida yangi obrazlarni yaratish jarayoni bo'lib, u fikrlash bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Tasavvur qilish jarayonida inson turli obrazlarni yaratishi, mavjud narsalarni o'zgacha shaklda tasavvur qilishi mumkin. Ayniqsa, bolalarda tasavvur jarayoni ijodiy xarakterga ega bo'lib, ular mavjud tajribalar asosida yangi obrazlarni shakllantiradilar", - deb izohlangan [9, 35-b.]. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zining nutqiy rivojlanishida kechikkan bolalar o'z tasavvuri rivojlanishida ham juda orqada qolgan bo'ladilar. Nutqiy rivojlanishi noto'g'ri yo'ldan borayotgan, masalan, eshitmaydigan (kar) bolalar shu sababli butunlay yoki qisman soqov, nutqiy muloqotga kirishishdan mahrum bo'lib qoladilar. Shu bilan bir vaqtda o'ta so'zga kambag'al, kamgap bo'ladilar, ba'zida esa tasavvurning ibtidoiy (rudimentar) shakllariga ega bo'ladilar. Shunday qilib, tasavvur rivojlanishini kuzatish bu vazifaning nutq rivojlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Nutq rivojlanishidagi kechikish, yuqorida aniqlanganidek, tasavvur rivojlanishining ham kechikishidan xabar beradi.

Tasavvur inson tafakkuri va ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning namoyon bo'lish shakllari bolalar va kattalarda turlicha ko'rinishda ifodalanadi. Tasavvur insonning mavjud tajribalari asosida yangi obrazlarni yaratishi, turli hodisa va narsalarni xayolan birlashtira olish qobiliyatidir. Ayniqsa, bolalarda tasavvur qilish jarayoni tabiiy va faol kechib, ular bilgan va bilmagan narsalarini xayolan tasavvur qiladilar. Tasavvur turlari quyidagicha:

Birinchi holat - o'zicha yangi obrazlarni o'ylab topish, hayotdagi turli narsalarni bir-biri bilan birlashtirish orqali yangi tasavvurlar yaratishdir. Masalan, ertak qahramonlarida uchraydigan qush-inson obrazi bunga misol bo'la oladi.

Ikkinchi holat - predmetlarni juda kichik yoki ulkan hajmda tasavvur qilish, shuningdek, ularning ayrim qismlarini o'zgacha shaklda idrok etishdir. Gulliver haqidagi ertak qahramonlari bunga misol bo'la oladi.

Uchinchi holat - fantaziya asosida turli sxematik obrazlar va rasmlarni xayolan yaratishdir.

To'rtinchi holat - ma'lum bir obraz yoki kasbga taqlid qilish, kelajakda kim bo'lishni tasavvur etishdir. Masalan, ideal quruvchi, shifokor yoki boshqa kasb egasi bo'lish haqidagi tasavvurlar bunga misol bo'ladi.

Katta maktabgacha yoshda ijodiy tasavvurning ixtiyoriyligi rivojlana boshlaydi. Bu holat "yangi biror narsani o'ylab topish, unga erishish uchun harakatlarni rejalashtirish va zarur vositalarni tanlash qobiliyatining shakllanishida" namoyon bo'ladi.

J. Gilford ijodiy xayolning to'rtta asosiy mezonini ajratib ko'rsatgan:

1. **Tezlik (fikir ravonligi)** - muayyan mavzu yoki g'oya bo'yicha eng qisqa vaqt ichida juda ko'p g'oyalarni ilgari surish (yaratish) qobiliyati bilan tavsiflanadi.



2. **Egiluvchanlik (moslashuvchanlik)** - g'oyaga yangicha qarash, bir jihatdan boshqasiga o'ta olish, urg'u va ustuvorliklarni o'zgartirish qobiliyati.
3. **O'zgachalik (originallik)** - ravshan, umumqabul qilingan javoblardan farq qiladigan yangi, nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati. Bu eng oson, ammo standart va qiziqsiz javoblardan qochishni anglatadi.
7. **Variativlik (xilma-xillik)** - u yoki bu vaziyatda har xil g'oyalarni taklif qila olish, obyektni idrok etishni shunday o'zgartirishki, unda to'g'ridan to'g'ri kuzatishdan yashiringan yangi tomonlarni ko'ra bilish, g'oya yoki obrazni batafsillashtirish (detallashtirish) ko'nikmasi. Qoida tariqasida, ushbu mezon yuksak ijodiy badiiy yoki ixtirochilik faoliyatini tavsiflaydi ^[10].

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda uning mazmunan boy, o'zgaruvchan, polifunksional, muqobil, hammabop, xavfsiz va oqilona bo'lishiga alohida talablar qo'yilmoqda. Mazkur talablar bolaning har tomonlama rivojlanishi, uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ijodiy salohiyatini namoyon etishi uchun qulay pedagogik sharoit yaratishga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini baholashning asosiy mezonlari sifatida V.T. Kudryavtsev tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy qobiliyat ko'rsatkichlarini keltirib o'tish mumkin:

1. O'z g'oyalarini amalga oshira olish, oddiy, ammo tugallangan ijodiy ishlar (masalan, rasmlar) yaratish qobiliyati.
2. So'z orqali original g'oyalar yaratish, ya'ni nutqiy ijodkorlikni namoyon etish.
3. Muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini topa olish qobiliyati.
4. Bir yoki bir nechta qismlarni idrok etish asosida yaxlit obrazni qayta yaratish, ya'ni predmet yoki rasmning umumiy ko'rinishini tasavvur qila olish ^[11].

Bu ko'rsatkichlar orqali bolaning psixik jarayonlari rivoji, shuningdek, ijodiy tasavvurining rivojlanganligini tashxislash imkoniyati kengayadi.

Yuqoridagi nazariy tahlillardan ko'rinadiki, ijodiy tasavvur maktabgacha yoshdagi bolaning yangi obrazlar yaratishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini amalga oshirishida muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi bolaning tabiiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, tashkil etilgan pedagogik sharoit, rivojlantiruvchi muhit hamda maqsadli tashkil etilgan faoliyatlarga ham bog'liqdir. Shu sababli katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun bolalarning qiziqishi, yosh xususiyatlari va ijodiy faolligini hisobga olgan holda quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

"Bizning kaftlarimiz nimaga o'xshaydi?" mashqi

Maqsad: tasavvur va diqqatni rivojlantirish.

Bolalarga o'z kaftlarini (yoki ikkala kaftini) bo'yoq yoki qalam yordamida qog'ozga tushirish taklif qilinadi. So'ngra ulardan: "Bu nima bo'lishi mumkin?" - deb so'raladi va xayol qilishga undaladi (daraxt, qushlar, kapalak va boshqalar). Keyin bolalarga kaft izlari asosida rasm yaratish taklif etiladi.

"Sohildagi toshchalar" mashqi

Maqsad: sxematik tasvirlarni idrok qilish asosida yangi obrazlar yaratishga o'rgatish.

Dengiz qirg'og'i tasvirlangan katta rasm ishlatiladi. Unda turli shakldagi 7–10 ta toshcha chizilgan bo'ladi. Har bir tosh qandaydir buyum, hayvon yoki insonga o'xshashi kerak.

Katta yoshli kishi bolalarga shunday hikoya qiladi:

"Bu qirg'oqdan sehrarg o'tibdi va uning yo'lida uchragan barcha narsalarni toshchaga aylantiribdi. Sen qirg'oqda nima bo'lganini topishing, o'z toshchang haqida gapirib berishing, u kimga yoki nimaga o'xshashligini aytishing kerak".

So'ng bolaga o'z toshchasi haqida hikoya tuzish taklif qilinadi:

1. U qirg'oqqa qanday kelib qolgan?
2. U bilan nimalar sodir bo'lgan?
3. Keyin nima bo'lgan?

"Sehrli rasmlar" mashqi

Maqsad: alohida belgilar va sxematik tasvirlar asosida predmetlar hamda vaziyatlarni xayolan yaratishga o'rgatish.

Bolalarga kartochkalar beriladi. Har bir kartochkada ayrim predmetlarning qismlari yoki geometrik shakllar tasvirlangan bo'ladi. Kartochkada rasmni davom ettirish uchun bo'sh joy qoldiriladi.



Bolalar rangli qalamlar yordamida berilgan shakllarni istagan narsasiga aylantirishi mumkin. Buning uchun shaklga turli detallar qo'shib chiziladi.

Rasm chizish tugagach, bolalar va kattalar o'z rasmlari asosida hikoyalar tuzadilar.

"Mo'jizaviy o'rmon" mashqi

Maqsad: berilgan sxematik tasvirlar asosida xayolda turli vaziyatlarni yaratishga o'rgatish.

Bolalarga bir xil qog'oz varaqlari beriladi. Unda bir nechta daraxtlar va turli joylarda tugallanmagan, noaniq shakllar chizilgan bo'ladi.

Katta yoshli kishi bolalarga:

"Rangli qalamlar yordamida mo'jizalarga boy o'rmon chizing va u haqida ertakona hikoya tuzing", - deb topshiriq beradi.

Tugallanmagan shakllarni haqiqiy yoki xayoliy predmetlarga aylantirish mumkin.

Bu mashqni boshqa mavzularda ham bajarish mumkin:

1. "Mo'jizaviy dengiz";
2. "Mo'jizaviy gulzor";
3. "Mo'jizaviy bog'" va boshqalar.

"Ertak-hikoya" mashqi

Maqsad: ijodiy tasavvurni rivojlantirish, haqiqat va fantaziyani farqlash qobiliyatini shakllantirish.

Ertak o'qilgandan so'ng, bolalar undagi voqealarni ikki qismga ajratadilar:

- hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar;
- faqat fantaziyaga oid bo'lgan voqealar.

Natijada ikkita hikoya hosil bo'ladi:

- biri to'liq fantastik;
- ikkinchisi esa real voqealarga asoslangan.

Bunday o'yin va mashqlarni juda ko'p yaratish mumkin. Barchasi bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish, ularni noodatiy fikrlaydigan, ijodkor va muvaffaqiyatli shaxs qilib tarbiyalashni maqsad qilgan kattalarning ijodkorligiga bog'liq.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tasavvur - bilish jarayonlaridan biri bo'lgan xayol jarayonining tarkibiy qismidir. Insonning bilish jarayonlari bir-biri bilan integratsion tarzda rivojlanadi. Bilish jarayonlarining rivojlaniishi uchun atrof-muhit, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hamda rivojlantiruvchi muhit alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday holatda tasavvurni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijodiy tasavvuri yaxshi rivojlangan bola o'ziga xos dunyoqarashga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator tavsiyalarni keltirib o'tamiz:

1. Bolalarda yaratuvchanlik faoliyatini boshlashdan oldin ularda, avvalo, bunga zarur fikrlash va nutqiy faoliyatni rivojlantirish zarur.
2. Bolaning hayotiy tajribasini turli sayrlar, sayohatlar va ekskursiyalar orqali boyitish.
3. Ijodiy tasavvurni rivojlantirishda o'yin faoliyatidan maqsadli va tizimli foydalanish.
4. Rivojlantiruvchi muhitni yaratishda bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish lozim.
5. Bolalarda yechimli muammolarga nisbatan o'z fikrlarini bemalol ayta olish xususiyatini shakllantirish lozim.
6. Faoliyat markazlaridan ijodiy rivojlanish sohasini rivojlantirishga mos ravishda samarali foydalanish.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi (uchinchi nashr). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-son¹ Farmoni. – Toshkent, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son² qarori.
3. Грошева И.В., Олимов К.Т., Назарова В.А., Джанпеисова Г.Э., Микаилова У.Т., Кенжабаева Д.А., Гулямова Н.Б., Мифтаева Н.А. Кузатиш ва баҳолаш: методик қўлланма (биринчи нашр). – Тошкент, 2020.
4. Богоявленская Д.Б. Творчество и одаренность // Наука в школе. – М.: ИТА "АПФИ", 2004. – Т. 2. – С. 53–59.
5. Дьяченко О.М. Развитие воображения дошкольника. – Москва: Международный образовательный и психологический колледж, 1996. – 197 с.
6. Комарова Т.С. Школа эстетического воспитания / Т.С. Комарова. – М.: Издательский дом "Зимородок", 2006. – 218 с.
7. Немов Р.С. Психология: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений: в 3 кн. – 4-е изд. Кн. 1: Основы общей психологии / Р.С. Немов. – Москва: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2003. – 688 с.
8. Koster J.B. Growing Artists: Teaching the Arts to Young Children. 6th edition. – Boston: Cengage Learning, 2014.
9. Otayeva S.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xayol jarayoni rivojlanishining psixologik xususiyatlari: bitiruv malakaviy ishi. – Urganch: UrDU, 2018. – 60 b.
10. Ситковская Н.В. Развитие творческого воображения детей старшего дошкольного возраста в интегрированной художественной деятельности: ВКР [Электронный ресурс]. – Екатеринбург, 2019. – URL: <https://elar.uspu.ru/bitstream/ru-uspu/60071/2/10sitkvskaya.pdf>
11. Кудрявцев Т.В. Развивающее воображение [Текст] / Т.В. Кудрявцев // Дошкольное воспитание. – 2014. – № 7. – С. 77–83.

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-8037353>

² <https://lex.uz/docs/-5179335>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.